

**FRIDIRIX I VA UNING ITALIYAGA YURISHLARINING SABABLARI  
VA OQIBATLARI**

**Davlatboyeva Vasila Azamat qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti II-bosqich talabasi  
[vasiladavlatboyeva@gmail.com](mailto:vasiladavlatboyeva@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Muqaddas Rim imperatori Fridirx I Barbarossaning Italiyaga uyushtirgan yurishlari sabab va oqibatlari tahlil qilinadi. Maqolada yurishlarning asosiy bosqichlari, jumladan, Milanning vayron qilinishi va Lenyano jangidagi mag'lubiyati haqida so'z yuritiladi. Yurishlarning natijasida Italiya shahar-davlatlarining qisman mustaqil bo'lishi, Papa hokimiyatining kuchayishi hamda imperiyaning ichki ziddiyatlari chuqurlashgani keltiriladi. Shuningdek maqolada Fridirix I ning siyosati va Italiyaga yurishlarining Muqaddas Rim imperiyasi tarixidagi ahamiyati yoritiladi

**Kalit so'zlar.** Germaniya, Italiya, Muqaddas Rim Imperiyasi, Fridirix I, papa, Milan, Lenyano, shtaufenlar, velflar, gogenshatufenlar.

**Абстрактный.** В статье анализируются причины и последствия походов императора Священной Римской империи Фридриха I Барбароссы в Италию. Если вы хотите изучать право, то обсуждаются основные этапы, включая разрушение Милана и поражение в битве при Ленъяно. В результате походов итальянские города-государства обрели частичную независимость, укрепилась папская власть, обострились внутренние противоречия империи. В статье также обсуждается политика Фридриха I и значение его походов в Италию в истории Священной Римской империи.

**Ключевые слова.** Германия, Италия, Священная Римская империя, Фридрих I, Папа Римский, Милан, Ленъяно, Штауфен, Вельф, Гогенштауфен.

**Abstract.** This article analyzes the causes and consequences of the campaigns of the Holy Roman Emperor Frederick I Barbarossa in Italy. The article discusses the main stages of the campaigns, including the destruction of Milan and the defeat at the Battle of Legnano. As a result of the campaigns, the partial independence of the Italian city-states, the strengthening of the papal power, and the deepening of the internal conflicts of the empire are noted. The article also highlights the policy of Frederick I and the significance of his campaigns in Italy in the history of the Holy Roman Empire.

**Keywords.** Germany, Italy, Holy Roman Empire, Frederick I, pope, Milan, Legnano, Staufens, Welfs, Hohenstaufens.

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

V son, Aprel

Germaniyaning XI–XV asrlardagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayoti murakkab va o‘zgaruvchan jarayonlar bilan ajralib turadi. Bu davrda Germaniya Muqaddas Rim imperiyasi<sup>55</sup> tarkibida bo‘lgan va mustahkam markaziy hokimiyatga ega emas edi. Germaniyada bu davrda ruxoniylarning roli oshib borib, cherkov katta ta’sirga ega bo‘lib oladi. Endi nafaqat diniy, balki siyosiy va madaniy hayotga ham rahbarlik qildi. Shuningdek bu paytga kelib feudal parokandalik natijasida imperator nominal hukmdor bo‘lsa-da, haqiqiy hokimiyat ko‘p hollarda mahalliy knyaz, graf va yepiskoplar qo‘lida bo‘lib, har bir viloyat o‘z qonunlari va qo‘shinlariga ega bo‘lgan.

Germaniyada yer egaligi munosabatlarining shakllanishi XI asrda ham davom etib turdi. Xususan, mamlakatning shimoli-g’arbidagi Saksoniya, Tyuringiya va ayniqsa, Frizlandiyada yirik yer-mulkleri asr boshlarida vujudga keldi. Ayni paytda, bu hududlarda erkin dehqonlarning muayyan qismi saqlanib qolgan edi. Yer egaligi jamiyatining shakllanishi Germaniyada XI asrning ikkinchi yarmi – XII asrning boshlarida yakun topdi<sup>56</sup>.

Bu jarayon aslida Germaniyaning feudal munosabatlari kuchayishiga va markaziy hokimiyatining mustahkmlanishiga olib kelgan muhim bosqich bo‘ldi. Jarayon natijasida yirik yer egalari va vassallar o‘rtasidagi munosabatlar, erkin dehqonlaning asta sekin tobe holga kelishi kuzatildi va ijtimoiy tabaqalanishning chuqurlashishi sifatida namoyon bo‘ldi. Boshqa o‘rta asr davlatlari singari Germaniyada ham yirik sulolalar hukrmonlik qildi. XII-XIII asrlardagi Germaniyada siyosiy hayotda bir qancha o‘zgarishlar kuzatildi.

Frankon dinastiyasini idora qilish befarzand Genrix V bilan tamom bo‘lgandan keyin, Germaniyani biroz vaqt Lotar Saksonskiy (1125-1137) boshqardi. U kuchli imperator emas edi va shu sababli, Shatufenlar<sup>57</sup> xonadoni bilan Velflar<sup>58</sup> xonadoni o‘rtasida hiyla ishlatishga majbur bo‘ldi. Chunki Shatufenlar Shvabiya gertsoglari bo‘lish bilan birga Frankoniyada ham kuchli ta’sirga ega edilar va Bavariya gertsoglari esa Velflar xonadoniga qo‘shilar edilar. Lotar Bavariya gertsogi Genrix Mag‘rur bilan yaqinlashib, unga o‘z qizini nikohlab berdi. Lotarning o‘g‘illari

<sup>55</sup> Muqaddas Rim Imperiyasi-Muqaddas Rim imperiyasi — 962-yilda tashkil topgan va 1806-yilgacha mavjud bo‘lgan davlat bo‘lib, markaziy Yevropada joylashgan. Imperiya Germaniya, Italiya va boshqa hududlarni o‘z ichiga olgan. U o‘zini qadimgi Rim imperiyasining davomchisi va xristian dunyosining markazi deb bilgan. Imperatorlar Papa bilan hokimiyat uchun ko‘p kurash olib borgan. Imperiya markazlashmagan bo‘lib, ko‘plab mustaqil knyazliklar va shahar-davlatlardan iborat edi. Napoleon urushlari davrida tugatilgan.

<sup>56</sup> Salimov T. “Jahon tarixi” Toshkent-“Unversitet”-2014. 191-b

<sup>57</sup> Shatufenlar sulolasi— 1024–1125-yillar oraliq‘ida Muqaddas Rim imperiyasini boshqargan nemis sulolasidir. Sulola vakillari imperiyani markazlashtirishga va imperator hokimiyatini kuchaytirishga harakat qilgan.

<sup>58</sup> Velflar — O‘rta asrlardagi Germaniyadagi nufuzli feudal sulolalardan biri bo‘lib, 11–13-asrlarda Muqaddas Rim imperiyasi siyosiy hayotida muhim rol o‘ynagan. Ular Gogenstaufenlar bilan imperatorlik taxti uchun kurash olib borgan. Velflar tarafдорлари ko‘pincha papani qo‘llab-quvvatlagan, bu esa ularni imperatorlik hokimiyatiga qarshi qo‘ygan.

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

V son, Aprel

bo‘limganligidan, u vafot etgandan so‘ng, Velflar ayni zamonda Saksoniyaning ham gertsoglari bo‘lib oldilar. Velflarning kuchayib ketayotganligidan betoqat bo‘lgan knyazlar Konrad Shtaufenni imperator qilib sayladilar. Konrad III (1138-1152) ikkinchi salib yurishlarida qatnashgan edi. U o‘z hukmronligining qolgan vaqtini Velflar bilan kurashga bag‘ishladi. Genrix Mag‘running o‘g‘li Genrix Sherning yoshligidan foydalangan Konrad Velflardan Bavariyani tortib olib, ularga faqat Saksoniyani qoldirdi. Konradning taxt vorisi Fridrix I Barbarossa davrida Shatufenlar dinasiyasining eng zo‘r qudratiga ega bo‘ldi<sup>59</sup>.

Genrix V befarzand vafot etgani tufayli imperatorlik taxtida bo’shliq yuzaga keladi. Bu esa kuchli markazlashgan hokimiyat yo’qligi sababli yirik feodallar o’rtasida kurashni keskinlashtiradi. Lotar esa o‘z siyosati yo’lida qizini Velflar xonadoniga nikohlab berdi va u bu orqali ularning qo’llab-quvvatlashiga ega bo‘lish niyatida edi. Bu vaqtinchalik natija bergen bo’lsa-da, uning vafotidan so‘ng vaziyat yana o’zgardi. Velflarning kuchayib ketishi natijasida, boshqa gertosqlar o’rtasida havotirni uyg’otdi. Konrad III hokimiyatga kelgach esa, u velflarga qarshi kurashni kuchatirib yubordi. U Velflar qo’l ostidagi Bavariyani ham qo’lga kiritdi va ularning siyosiy ta’sirini chekladi. Aniqrog’i, Konrad III siyosiy maydonni tozalab, Shatufenlar qudratini tiklashga yo’l ochdi. Uning vorisi-Fridrix I Barbarossa davrida bu xonadon eng yuqoriga darajaga yetdi. Barbarossa kuchli impertor hokimiyati va imperiyaning Yevropa siyosatida faol o’rni bilan ajralib turadi. Fridrix I Barbarossa Muqaddas Rim imperiyasining eng qudratli hukmdorlaridan biri hisoblanadi. U 1152-1190-yillarda hukmronlik qilib tarixda chuqur iz qoldirgan. Fridrix I o’zining kuchli siyosati va olib borgan yurishlari bilan mashhur. Uning asosiy maqsadlaridan biri Italiyaga yurishlar olib borib uning natijasida o‘z ta’sirini Italiyada ham kuchaytirish va Papa bilan o’zaro ziddiyatlariga barham berish edi. Ayniqsa, Italiya shimolidagi boy shahar-davlatlarni nazoratni istashi va savdo yo’llariga ega chiqish maqsadida Italiyaga bir nechta yurishlar olib boradi. Bu yurishlar Muqaddas Rim imperiyasi va Italiya o’rtasidagi munosabatlarini o’zgartirib yuboradi va Yevropadagi kuchlar muvozanatiga sezilarli ta’sir o’tkazgan. Germaniyaning XI asrdagi ijtimoiy tuzumidagi jarayonlar shunday kechgan edi.

Fridrix I Barbarossa Germaniyani 1138-yildan boshqargan Gogenshtafenlar<sup>60</sup> sulolasining taniqli vakili (“Mallassoqol”) (1152–1190-y.) bo‘lgan. Fridrix I jasur va

<sup>59</sup> Semyonov F.V. “O’rta asrlar tarixi”. « O’qituvchi » nashryoti-Toshkent-1973 257-b

<sup>60</sup> Gogenshtafenlar sulolasi — 1138–1254-yillar oralig‘ida Muqaddas Rim imperiyasini boshqargan nemis imperatorlari sulolasidir. Sulola vakillari imperiyanı markazlashtirishga, Italiyanı bo‘ysundirishga va imperator hokimiyatini mustahkamlashga harakat qilgan. Eng mashhur vakillari — Fridrix I Barbarossa va Fridrix II bo‘lib, ular papa hokimiyatiga qarshi chiqqan va kuchli markaziy boshqaruv o‘rnatishga intilgan. Gogenshtafenlar davrida

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

V son, Aprel

shafqatsiz sarkarda bo'lishi bilan bir qatorida, iqtidorli diplomat, davlat ishlarini mukammal yo'lga qo'ygan hukmdor edi. U o'zining kuch-qudratini, erishish mumkin bo'lgan maqsadga – german imperatori boshchiligidagi jahon imperiyasining tuzilishiga qaratgan. Fridrix I Vengriya, Chexiya, Polsha va Daniya qirollari tomonidan o'z hokimiyatining ustunligini tan oldirishga intiladi. Lekin Angliya va Fransiyadan ustunlikka erishish mumkin bo'lmasligi sababli bu yo'nalishda harakat qilishdan voz kechishga majbur bo'lgan. Ko'proq, Fridrix I ning hukmronligi paytida mamlakatdagi mustaqil knyazliklar faoliyatini markaziy hokimiyat manfaatiga bo'ysundirishga qaratilgan edi<sup>61</sup>.

Fridrix I Gogenshtafenlar sulolasining eng taniqli va kuchli vakillaridan biri hisoblanadi. Tarixda u "Barbarossa" ya'ni "Qizil soqol" nomi bilan mashhur bo'lgan. U o'z davrining kuchli va ta'sirli hukmdorlaridan biri bo'lib, mamlakatning markaziy hokimiyatii mustahkamlash va imperianing kuchli boshqaruv tizimini ta'minlashga intilgan. Fridrix I o'zini faqat Germaniya emas, balki butun xristian dunyosining boshlig'i sifatida tasavvur qilgan. Fridrix I qo'shni davlatlarga nisbatan o'z ustunligini tan oldirishga harakat qilgan. Fridrix I hukmronligi davrida Germaniya ichida kuchli markazlashuv siyosati olib borildi. U asosiy e'tiborni mustaqil knyazliklar faoliyatini cheklash, ularni markaziy hokimiyatga bo'ysundirish hamda imperator hokimiyatini siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga qaratgan.

Imperator qator gertsog va graflarga yon bosish orqali urushlarga chek qo'yib, mamlakatda osoyishtalik o'rnatish, hatto imperiyani birmuncha kengaytirishga ham erishadi. Barbarossa o'z knyazligini tuzish va bu tadbir orqali hokimiyatini mustahkamlashga intilgan. Ammo uning asosiy tayanchi bo'lgan vassallari, ministeriallar va mayda ritsarlar nisbatan kuchsiz bo'lganlar. Bu vaziyat Fridrixni cherkov ustidan ham hukm o'tkazishga intilishiga olib keladi. Vorms konkordatiga zid ravishda episkoplarni o'z odamlardan tayinlashga intilgani papa bilan jiddiy mojaroga olib keladi. Bu nizoning ildizi chuqur bo'lib, papa ham imperator sifatida jahon imperiyasini tuzish rejasining ko'ngliga tug'tgan Fridrixning Shimoliy Italiya bo'ysundirish harakati esa, papalikka xam bevosita xavf solar edi. Mojaro 1137-yili Bezansonda reyxstagtda papa legati Roland o'z homiyligining maqbulini yuqori baholashni boshladi. Unda Fridrix I ga imperiya papa tomonidan in'om etilgan ta'kidlangan edi. Bunga javoban Fridrix I devonxonasi Rim huquqiga asoslanib, imperator o'z hokimiyatini bevosita Xudodan olganini bayon etdi. Papaning dunyoni boshqarishga da'vosiga javoban imperator manifestlarida Fridrixning da'volari

imperiya siyosiy va harbiy jihatdan kuchaygan, ammo papa bilan ziddiyatlar ularning zaiflashishiga olib kelgan. Sulola XIII asr o'rtalarida tugagan.

<sup>61</sup> Salimov T. "Jahon tarixi" 195-b

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

V son, Aprel

asoslab beriladi. Fridrixning keyingi yurishlari Shimoliy Italiya shaharlar ustidan hukmronlikni o'rnatish uchun urushlar tusini oldi<sup>62</sup>.

Fridrix I ning harakatlari davlat boshqaruvining mustahkamlanishiga qaratilgan bo'lsa-da, feodal tizimning o'ziga xosligi tufayli bu kurash murakkab va uzoq davom etgan. Fridrix I va Papa o'rtasidagi mojarolar hokimiyatning ilohiy manbasi haqida bo'lgan tortishuvga asoslanadi. Fridrix I tomonidan ilgari surilgan g'oya — hokimiyatning ilohiy emas, balki huquqiy va siyosiy asosda mavjud bo'lishi — keyinchalik Yevropada dunyoviy davlat konsepsiyasining shakllanishiga zamin yaratgan. Bu, o'z navbatida, imperator-papa qarama-qarshiligining keskinlashuviga olib kelgan.

Fridrix I Barbarossa 38 yil imperatorlik qildi. U shafqatsiz, tajovuzkor, g'oyat shuxratparast va makkor siyosatchi edi. Fridrix Bavariyani Velflarga qaytarib berib, ularni tinchitgach, salib yurishlari natijasida boyigan Italiyaga o'zining butun diqqat-e'tiborini qaratdi. Fridrix I Barbarossa Rim shaharliklarining demokratik rahbari bo'lib, Rim respublikasiga asos solishga harakat qilgan (1143 yilda) va papani dunyoviy hokimiyatdan mahrum qilmoqchi bo'lgan Arnold Breshianskiyi Fridrix I dabdurustdan papaga tutib berdi. Arnold Breshianskiy papa zindoniga tashlandi, uning jasadi esa gulxanda kuydirildi (1155 y.). Rim respublikasi tugatildi. Barbarossa 1158- yilning 11- noyabrida Rankal vodiysida (Pyachentsa shahriga yaqin joyda) katta seym chaqirib, unga Italiyaning barcha eng yirik feodallarini va Italiya shaharlarining vakillarini taklif etdi. Ana shu seymda Rankal qarorlari deb atalgan qarorlar qabul qilinib, ular imperatorning Italiyadagi hokimiyatini cheklanmagan hokimiyatga aylantirdi<sup>63</sup>.

Fridrix I Barbarossa o'z davrining kuchli, lekin mutlaqlikka intilgan imperatorlaridan biri bo'lgan. Uning siyosati ko'pincha zo'ravonlik, makkorlik va strategik ittifoqlar orqali olib borilgan. U diniy hokimiyat bilan vaqtincha til topishgan bo'lsa-da, asosiy maqsadi imperianing markazlashgan boshqaruvinini kuchaytirish edi. Ammo aynan shu harakatlari ko'plab isyonlarga, ayniqsa Shimoliy Italiya shaharlarida kuchli qarshiliklarga olib kelgan

Bu qarorga javoban bir qancha shaharlar, ayniqsa Milan yetakchiligidida qo'zg'olon ko'tariladi. Fridrix Milanni qamal qilib, uzoq davom etgan urushdan so'ng, 1162-yilda shaharliklarni taslim bo'lishga majbur qildi. U shahardagi isyonchilardan qasos oldi. Milan vayron qilindi, aholining katta qismi boshqa joylarga ko'chirildi. Biroq imperator vakillarining soliqlarni tinimsiz yig'ishi Italiya xalqi noroziliginini kuchaytirishda davom etdi. Verona, Padua va Vichensa shaharlarining Fridrix I ga

<sup>62</sup> O'sha joyda

<sup>63</sup> Qosimov E, Nuriddinov E, Mulladjonova R, Ismatullayev F va boshq. "Jahon tarixi". Toshkent-2013. 405-b

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

V son, Aprel

qarshi ittifoq tuzishiga sabab bo'ldi. 1159-yilda papa etib saylangan Aleksandr III papa hokimiyatini qo'llab-quvvatlagan legat Roland boshchiligidagi Fridrixga qarshi chiqdi. Fridrix esa Italiya shaharlarini nazoratga olish uchun bu mojarodan foydalanishga urindi. Fridrix I 1166 yili yana Italiyaga yurish qildi. Avvaliga Rim papasi qarshiligini yengib, Rim shahrini egalladi. Lekin Rimda yuzaga kelgan kasallik epidemiyasi Fridrix qo'shinining katta qismini qirib yubordi. U chekinishga majbur bo'ldi. Oradan vaqt o'tib, Lombardiya shaharlarining imperiyaga qarshi kurashi avj oldi. Venetsiya ittifoqi tuzildi<sup>64</sup>.

Fridrix I ning Italiya siyosati harbiy kuch va zo'ravonlikka asoslangan bo'lsa-da, uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlay olmagan. Aksincha, uning siyosati Italiya shaharlarining o'zaro ittifoq tuzishiga, mustaqillikka intilishlariga va papalik bilan birlashishiga sabab bo'lgan. Bu voqealar imperatorlikning Italiyadagi ta'sirini zaiflashtirgan va shaharlar mustaqilligi uchun zamin yaratgan.

1167 yilda Barbarossa Italiyaga yana katta qo'shin tortib kelib, Rimni oldi. Papa Aleksandr III qochib ketishga majbur bo'ldi. Imperator Lombardiya shaharlarini tinchitmoqchi bo'ldi, lekin to'satdan boshlangan o'lat kasali uning qo'shinlarining safini xarob etdi (25 ming kishi o'ldi) va shundan keyin u Germaniyaga qaytishga majbur bo'ldi. Barbarossaning uzoq vaqt bo'limganligidan foydalangan Lombardiya ligasi, u bilan yangidan to'qnashmoq uchun yetarli darajada harbiy kuchlarni tayyorlay oldi<sup>65</sup>.

Tabiiy ofat — o'lat, Fridrixning rejalarini izdan chiqaradi. U jang maydonida emas, balki epidemianing oldini ololmagani tufayli orqaga chekinishga majbur bo'ladi. Bu tarixda inson kuchi cheklanganligini ko'rsatadigan muhim misollardan biridir. Bu tarixiy davr Italiya shaharlari va imperator hokimiyati o'rtasidagi kurashning cho'qqisi hisoblanadi. Fridrix I ning kuchli imperator sifatida yuritgan siyosati xalq harakati, shahar ittifoqlari va beqaror omillar (epidemiya) oldida zaifligini namoyon qiladi. Ayniqla Legnano jangida xalq g'alabasi, o'rta asr Yevropasida siyosiy kuchlar balansining o'zgarayotganidan darak beradi

1174—1175 yillarda Barbarossa yana Italiyada paydo bo'ldi, lekin bu safar uning unchalik omadi kelmadi. 1176 yil bahorida Lenyano degan joyda (Milandan sal uzoqroq) u liga qo'shnulari tomonidan batamom mag'lubiyatga uchratildi. Qizig'i shundaki, nemis ritsarlarini yenggan qo'shining bir qisminigina italiyalik ritsarlar, asosiy qismini esa Milanning va Lombardiyadagi boshqa shaharlarning

<sup>64</sup> O'sha joyda

<sup>65</sup> Qosimov E, Nuriddinov E, Mulladjonova R, Ismatullayev F va boshq. "Jahon tarixi" o'sha joyda

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

V son, Aprel

hunarmandlari va xalfalari tashkil qilar edi. Lenyano yonidagi mag'lubiyat Fridrix I ni Lombardiya shaharlariga yon berishga majbur etdi<sup>66</sup>

Aslida Shimoliy Italiyada Shtaufenlar kelmasdan avvalgi ahvol qaytadan tiklandi. Shaharlar erkin kommunalni huquqini oldilar, bu erkin kommunalar o'z syuzereni sifatida imperatorning oliv hokimiyatini tan oldilar, xolos. Ayni paytda Fridrix I papa davlatining ishlariga har qanday aralashuvidan voz kechib, papaga ham yon berishga majbur bo'ldi<sup>67</sup>.

Fridrix I Barbarossaning Italiyaga qilgan yurishlari o'rta asr Yevropasida imperatorlik hokimiyatini tiklash, siyosiy markazlashuvga erishish va Rim Papaligi bilan raqobatda ustunlikka erishish kabi strategik maqsadlar bilan bog'liq edi. U Lombardiya shaharlarini va Rimni o'z nazoratiga olishga harakat qilgan bo'lsa-da, kuchli shahar kommunalari, Papa bilan ziddiyatlar va salbiy omillar – xususan o'lat kasali va xalq harakatlari uning rejalariga jiddiy to'siq bo'ldi. Fridrix Italiyada muvaqqiyat qozonish o'rniga, mahalliy shaharlarning mustaqilligini tan olishga va Papaga yon berishga majbur bo'ldi. Ayniqsa, Legnano jangi (1176) uning siyosiy mag'lubiyatining ramziga aylandi. Bu voqeal xalq kuchining va shahar fuqarolarining tarixiy g'alabasini ifodalaydi. Fridrixning yurishlari natijasida imperator hokimiyati ramziy darajada saqlanib qolgan, biroq real siyosiy kuch shahar kommunalari va Papalik qo'liga o'tgan. Bu jarayon Yevropa tarixida markazlashuv va mahalliy avtonomiya o'rtasidagi kurashning yorqin namunasi bo'lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Salimov T. "Jahon tarixi" Toshkent-“Unversitet”-2014. 191-195-b.
2. Semyonov F.V . “O'rta asrlar tarixi”. « O'qituvchi » nashryoti-Toshkent-1973 257-258-b.
3. Qosimov E, Nuriddinov E, Mulladjonova R, Ismatullayev F va boshq. “Jahon tarixi”. Toshkent-2013. 405-b.
4. Abduazimov A, Kamolov J. “Jahon tarixi”. Toshkent-2023. 110-b.
5. Qodirov A. “Jahon tarixi” Toshkent-“Ma'naviyat”-2015. 56-70-b.

<sup>66</sup> Abduazimov A, Kamolov J. “Jahon tarixi”. Toshkent-2023. 110-b

<sup>67</sup> Semyonov F.V . “O'rta asrlar tarixi”. 258-b